

**KONFERENSIYALAR UZ**

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**AVGUST, 2025-YIL**





# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas’ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### **TEXNIKA FANLARI**

*Фозилжонов Хожиақбар*

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
СВТ..... 7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI ..... 12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

### **TARIX FANLARI**

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA ..... 26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI ..... 30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) ..... 33-37

*Норов Шухрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) ..... 38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) ..... 42-43

### **IQTISODIYOT FANLARI**

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI ..... 44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI ..... 48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI ..... 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
<b>FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....	93-98
<b>FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI .....	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI .....	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI .....	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	146-149
<b><i>YURIDIK FANLARI</i></b>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI .....	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES .....	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI .....	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR .....	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH .....	170-175
<b><i>PEDAGOGIKA FANLARI</i></b>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ .....	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI .....	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI .....	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI .....	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI .....	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI .....	203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI ..... 207-210

### **TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

*Мамадалиев Хасанхон*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

*Махмудбеков Бобурмирзо*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

### **PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Усманова Лилия*

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ ..... 222-225

### **SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

## TARIX FANLARI

### NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI QIYOSIY FARQLAR

#### **Bobojonova Zuxra Farxod qizi**

Abu Rayhon Berunuy nomidagi Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi atag'on qurbonlari xotirasi muzeyi kata ilmiy hodimi

E-mail: [farhodovna01@gmail.com](mailto:farhodovna01@gmail.com)

Tel: +998 99 9661494

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan "Zafarnoma" asarlarining tarixiy, uslubiy va manbashunoslik jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda asarlarning yaratilish sharoitlari, mualliflarning saroyga yaqinligi, ularning tarixiy voqealarni yoritishdagi yondashuvi, til uslubi o'rganilgan. Ayniqsa, Amir Temurga nisbatan qo'llangan unvon va laqablar (Ko'ragon, Sohibqiron, Temurbek)ning ishlatilish tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Zafarnoma, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Amir Temur, saroy tarixchiligi, manbashunoslik, Sohibqiron, Ko'ragon.

### A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE "ZAFARNAMA" WORKS BY NIZAM AL-DIN SHAMI AND SHARAF AL-DIN ALI YAZDI

#### **Bobojonova Zuxra Farxod qizi**

Senior Research Fellow at the Museum of the Memory of Repression Victims, a structural unit of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

**Annotation.** This study provides a comparative analysis of the "Zafarnama" chronicles written by Nizam al-Din Shami and Sharaf al-Din Ali Yazdi from historical, stylistic, and source-critical perspectives. It investigates the socio-political context of their composition, the authors' proximity to the court, and their narrative strategies. Special attention is given to the use of honorific titles for Amir Temur (Kuragan, Sahib Qiran, Temurbek).

**Key words:** Zafarnama, Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Amir Temur, court historiography, source criticism, Sahib Qiran, Kuragan.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-04>

#### **KIRISH**

Amir Temur shaxsiga nisbatan qiziqish doimo dolzarb bo'lib, G'arb va Sharqda Sohibqironga atab asarlar bitilgan. O'z zamonida yozilgan asarlar o'rganilgan. Shulardan Zafarnoma asarlari ham hali bugungacha temurshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Nizomiddin Shomiy va uning "Zafarnoma" asari Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligining eng muhim yozma manbalaridan biri hisoblanadi. U Temurning bevosita topshirig'i bilan 14-asr oxiri — 15-asr boshlarida yozilgan bo'lib, nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kungacha tarixchilar uchun ishonchli manba vazifasini o'tab kelmoqda. Ushbu asar Amir Temurning harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi va shaxsiy fazilatlari haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ammo tarixchilar orasida "Zafarnoma"ning tarixiy qiymati va xolislik darajasi borasida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar asarni yuqori baholab, unda voqealarning izchilligi, tafsilotlarning to'liqligi va manba sifatida aniqligi saqlanganini ta'kidlaydilar. Ular Shomiyning voqealarni saralashdagi ehtiyotkorligi va ularning ketma-ketlikda berilishi asosida uni ishonchli tarixiy manba sifatida e'tirof etadilar.

Boshqa bir guruh tarixchilar esa Shomiy faoliyatini tanqidiy nuqtai nazardan baholab, uning saroy tarixchisi sifatida Temur xizmatida bo'lgani va "Zafarnoma" aynan buyruq asosida yozilgani sababli, asar tarkibidagi ko'plab ma'lumotlar mubolag'ali yoki maqtovga asoslangan bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradilar. Ular bu holatni asarning tarixiy xolisligiga putur yetkazuvchi omil deb baholaydilar. Ayniqsa, Temurning siyosiy qarorlarini asosan ijobiy talqinda yoritilishi, dushmanlarga qarshi harbiy yurishlarining har doim adolatli sifatida ko'rsatilishi — tarixiy faktlarga bir oz ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Shu bois "Zafarnoma" asarini baholashda uni nafaqat saroy tarixchisi tomonidan yozilgan rasmiy buyruq asosidagi matn sifatida, balki o'z davri ruhini, siyosiy-mafkuraviy yo'nalishni, Temuriylar davrida tarix yozish an'analarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham ko'rish lozim. Bugungi kunda ham Shomiyning bu asari temuriylar tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda, ammo unga tarixiy tanqidiy yondashuvni saqlagan holda murojaat qilish muhimdir.

Bir xil nom ostida temuriylar davri tarixnavislari Nizomiddin Shomiy 1400-1404-yillarda Temurning shaxsan topshirig'i bilan Zafarnoma asarini yozgan bo'lsa, Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning nabirasi Ibrohim Sulton talabi bilan o'zining Zafarnomasini 1419-1425-yillar oralig'ida yozib tugatadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nizomiddin Shomiy o'zining asarida Amir Temur bilan uchrashuvini quyidagicha tasvirlaydi: "Amir Sohibqiron hazratlari, Alloh taolo saltanatlarini zamon oxirigacha barqaror etsin, kamina bandangiz Nizomiddin Shomiyning huzurlariga keltirishni buyurdi. Men palos o'pish sharafiga musharraf bo'lganimda (ul hazrat) siylash-u izzatlash marosimlarini bajo keltirib, lutfu ehsonlar ko'rsatdilar." [4;B.22]

Sharafuddin bir necha yil Hirotda Shohrux mirzoning hamda Forsda uning kichik o'g'li Ibrohim Sultonning saroyida xizmat qiladi. [6;B.3]

Nizomiddin Shomiy Zafarnomasining Sharafiddin Alining Zafarnomasidan yana bir farqi tilining soddaligidadir. Bunga asosiy sabab, Amir Temur Nizomiyga tarixiy asar yozishni buyurganida o'zigacha yozilgan asarlardan qoniqmayotganligini va bundan keyin yozilajak asarlarda mubolag'adan holi bo'lgan asar yozishni topshirganligidadir. [4;B.5] Boshqa tomondan Sharafuddin Ali Yazdy Zafarnomasida bunday oddiylikni uchratmaymiz, aksincha Sharafuddin

ba'zi ruhini kechinmalarini ham lirik chekinish sifatida uzundan-uzoq she'rlar bilan ifodalaydi. Shunday joylarda muallif o'quvchining diqqati va vaqtini suiiste'mol qilayotgani seziladi. chunki bunday sahifalarda harbiy, siyosiy voqealarning rivojlanishi sustlashib ketadi, yoki umuman to'xtaydi. [6;B.5] Aynan mana shu mubolag'ani fransuz tadqiqotchisi Lyusen Keren ham quyidagicha eslatib o'tgan: "Mazkur asarning eng katta kamchiliklaridan biri unda qahramonni namunaviy musulmon hukmdori sifatida tasvirlash maqsadida haddan ziyod ideallashtirilishi va uning o'tgan yo'llarida ba'zan vayrona manzillar ham qolgani sukut ostiga olinib, qo'ygan har qadamiga madhiyalar o'qilishidir... Adolatli hamma narsadan ustun qo'yguvchi Amir Temur ham me'yoridan oshirib yuborilgan ushbu madhiyani yoqtirmagan bo'lardi". [3;B.9]

Yuqorida keltirilgan farqadan tashqari Nizomiddin Shomiy. Zafarnomasini aniq Amir Temur vafotigacha yakunlamasdan uni 1404 -yil voqealari amiqroq qilib aytganda Sohibqiron

Hazratning Arron Qorabog'iga borib tushishi va u joyda aysh-u ishratga mashg'ul bo'lishi bayonida deb nomlangan.[4;B.367] bu voqea haqida quyidagicha keltirilgan "Nizomiddin Sohibqiron yurishlarini 1404-yil bahorigacha yetkazib, asarni tamomlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraddudida bo'lgan Amir Temurga taqdim etgan. Bundan keying Amir Temur vafotigacha (1405-yil 18-fevral) kechgan voqealar keyinroq muarrix Hofizi Abru tomonidan "Zafarnoma"ga "Zayl" -

"Ilova" tarzida yozilgan. [4;B.5.] Bu haqda Hofiz Abruning o'zi Ilovaning boshida quyidagicha yozadi:" So'ngra ushbu (parcha) ulug' mavlono, olamdagi bilimdonlarning iftixori, o'z zamonining so'z ustasi, asrlar yagonasi mavlono Nizomiddin Shomiyning, o'lkalarni zabt etuvchi hazrat Sohibqiron haqida yozgan "Zafarnomai shohiy" kitobiga ilova erur.[4;B.372]

Sharafiddin Ali Yazdiy esa asarnining yozilishida boshidan oxirigacha o'zi rahbarlik qilgan. Uning Zafarnomasi Xalil Sultonning taxtga kelishi va uning hokimyatdan ag'darilishi haqidagi qisqa bayoni bilan tugallanadi.

Ko'zga ko'rinadigan navbatdagi farq asar yozishda asos bo'lgan asarlarlardan foydalanish darajasi hisoblanadi. Tabiiyki Sharafiddin Ali Yazdiy zamonida Nizomiddin Shomiyning Zafarnomasi asosiy qo'llanma vazifasini o'tagan. Nizomiddin Shomiy esa qaysi asardan foydalanganligi haqida biror joyda ma'lumot bermagan. Shu o'rin rus tadqiqotchilari quyidagicha xulosa berishgan;" L.A.Zimin Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma asaridagi Temur yurishlari tasviri G'iyosiddin Ali ning " Temurning Hindistonga yurishi tavsilotlari " asaridagi ma'lumotlarning qisqacha bayoni ekanligini isbotladi." [5;C.4]

Sharafiddin Ali Yazdiy esa o'z o'rnida o'zigacha bo'lgan davrda eng ishonchli manbaalardan hisoblangan Shomiy Zafarnomasidan foydalanganligini inkor etmaydi. Buni har ikki kitobning asosiy qismlarini qiyoslash orqali osongina tekshirish mumkin. Biroq Sharafiddin Ali Yazdiy o'zidan oldingiga qaraganda ko'proq faktik materiallar beradi. Bu uning qo'shimcha manbalari bo'lganligi bilan izohlanadi. Sharafiddin Nizomiddin Shomiy ijodiga, balki ikkinchisi kabi targ'ibot kundaliklariga ham murojaat qildi va u yerdan o'zidan oldingiga qaraganda ko'proq ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lgan.

## XULOSA

Rus tadqiqotchilari Nizomiddinni shomlik deb keltirsa, ingliz tarixchisi Harold Lamb uni bog'dodlik deb keltiradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra Amir Temur va Nizomiddinning uchrashuvi quyidagicha bo'lgan:" . Hukmronligining oxirida Temur o'z kotiblariga har kuni voqealarni yozib olishni buyurdi. Ularning aksariyati uyg'ur va fors tillarida yozilgan. Temur bu yozuvlarni 1400-yil oxirida o'z saroyiga keltirilgan Nizomiddin Shomiy ismli Bag'dod yozuvchisiga ishonib topshirdi va Nizomiddin Shomiy ushbu materiallar asosida o'z hukmronligi tarixini oddiy uslubda, badiiy mubolag'adan holi yozishni buyurdi. Shomiyning asari sohibqironning o'limidan bir yil oldin tugagan va Temurga "Zafarnoma - g'alaba kitobi" nomi bilan taqdim etilgan. U fors tilida yozilgan va bugungi kunda Britaniya muzeyida tarjimasiz saqlanadigan faqat bitta nusxasi ma'lum.[2;P.309]

Nizomiddin Shomiy Zafarnomasida ilk bor Temurga nisbatan Amir Temur Ko'ragon deya murojat qiladi. Keyinchalik esa ko'proq hazrat sohibqiron deya keltirgan. Sharafiddin Ali Yazdiyda Amir Temur deya keltiriladi ammo uni forsiydan o'g'irgan Muhammad Ali asarda

Temurbek deb murojaat qilgan. Yazdiy boblarida Ko'ragonga nisbatan ko'proq Sohibqiron nomi ishlatilganini ko'ramiz.[1;B.42]

Xulosa qilib aytganda, ikkala tarixnavislar ham bir tarixiy shaxs to'g'risida o'zlarining yozish uslubida io'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib asarlar yozganlar.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Bobojonova Z. Amir Temur davri tarixining ikkita Zafarnoma asarlari bo'yicha o'rganilishi va ularning manbashunoslik tahlili. Dissertatsiya. – Urganch: UrDU, 2025.
2. Harold Lamb. Tamerlaine The Earth Shaker. — New York: A Star Book, 1928.
3. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. — Toshkent: Adolat, 1996.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. — Toshkent: Fan, 2019.
5. Тамерлан. Эпоха, личность, деяния. — М.: Гураш, 1992
6. Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997

# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, 05-avgust

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.